



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari ..... 98 <b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	98
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash ..... 102 <b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	102
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта ..... 106 <b>Панжиева Назокат Нормаматовна</b>	106
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации ..... 111 <b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	111



# JAMIYAT MUHITIDA RADIKALIZMNING OLDINI Olishga QARATILGAN UZLUKSIZ PROFILAKTIKA TIZIMINI YARATISH



Axmedova Iroda Shaxitbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi,  
 falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini shakllantirish masalasi yoritilgan. Unda radikal g'oyalar tarqalishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy va ma'naviy omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib beriladi. Profilaktika tizimi ta'lim muassasalari, mahalla va oilaviy muhitda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, yoshlar ongida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, diniy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga qaratilishi zarurligi ta'kidlanadi. Radikalizmga qarshi kurashning samaradorligi uzluksiz va tizimli profilaktika choralarini amalga oshirish hamda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq ekani asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** deradikalizatsiya, ta'lim, tarbiya, mafkuraviy immunitet, bag'rikenglik, radikalizm, ijtimoiy barqarorlik, ma'naviyat, axborot xavfsizligi.

**Abstract:** The article explores the issue of establishing a continuous preventive system against radicalism within society. It analyzes the social and spiritual factors that contribute to the spread of radical ideas and outlines strategies for their mitigation. The importance of strengthening educational and awareness-raising activities in schools, families, and local communities is emphasized, along with fostering critical thinking among youth, improving religious literacy, and reinforcing social solidarity. The conclusion highlights that the effectiveness of countering radicalism is closely linked to implementing systematic preventive measures and cultivating a healthy moral environment in society.

**Key words:** deradicalization, youth, education, upbringing, ideological immunity, tolerance, radicalism, social stability, spirituality, information security.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема формирования непрерывной системы профилактики радикализма в общественной среде. Анализируются социальные и духовные факторы, способствующие распространению радикальных идей, а также пути их нейтрализации. Подчеркивается необходимость усиления воспитательно-просветительской работы в образовательных учреждениях, семье и махалле, развития критического мышления у молодежи, повышения религиозной грамотности и укрепления социальной солидарности. Делается вывод о том, что эффективность борьбы с радикализмом напрямую связана с реализацией системных профилактических мер и созданием здоровой духовной атмосферы в обществе.

**Ключевые слова:** дерадикализация, молодежь, образование, воспитание, идеологический иммунитет, толерантность, радикализм, социальная стабильность, духовность, информационная безопасность.

## KIRISH

Zamonaviy dunyoda radikalizm va ekstremizm nafaqat alohida davlatlar, balki xalqaro hamjamiyat xavfsizligi uchun ham jiddiy tahdid sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur hodisalarning murakkabligi shundaki, ular faqat siyosiy yoki diniy omillar ta'sirida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va ma'naviy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu sababli radikalizmga qarshi kurashda jazolashdan ko'ra profilaktika va oldini olish mexanizmlariga ustuvor ahamiyat berish zarurati tobora ortib bormoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Radikalizm va radikallashuv jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ushbu hodisaning murakkab ijtimoiy-psixologik, siyosiy va ma'naviy omillar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi.

Xususan, F.M. Moghaddam radikallashuv jarayonini bir martalik hodisa emas, balki ijtimoiy norozilik, adolatsizlik hissi va jamiyatdan begonalashuv ta'sirida bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida talqin

qiladi. Olimning fikricha, radikalizmga qarshi kurashda jazolash choralaridan ko'ra radikallashuvning dastlabki bosqichlarida profilaktik ta'sir choralarini kuchaytirish samaraliroq natija beradi <sup>[8]</sup>.

Radikallashuvning omillari masalasida C. McCauley va S. Moskalenko shaxsiy norozilik, guruhii identifikatsiya hamda ijtimoiy ta'sirlarning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, insonning jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarini mustahkamlash, ijtimoiy integratsiyani ta'minlash va fuqarolik faolligini oshirish radikal qarashlarning shakllanish xavfini kamaytiradi <sup>[7]</sup>.

J. Horgan esa radikallashuv va terrorchilik faoliyatiga qo'shilish tushunchalarini bir-biridan farqlab, har qanday radikal qarash zo'rvonlikka olib kelmasligini, biroq radikallashuvning chuqurlashuvi zo'rvon ekstremizm xavfini oshirishini qayd etadi <sup>[5]</sup>.

Radikalizmning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilgan M. Crenshaw ushbu hodisani faqat mafkuraviy omillar bilan izohlash yetarli emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, siyosiy beqarorlik, iqtisodiy muammolar, ijtimoiy tengsizlik va turli ijtimoiy ziddiyatlar ham radikallashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi <sup>[3]</sup>. Shu nuqtai nazardan, UNDP ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham yoshlarning radikal guruhlariga qo'shishida mafkuraviy omillar bilan bir qatorda ishsizlik, kelajakdan umidsizlik va ijtimoiy adolatsizlik hissi muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Zamonaviy axborot makonining radikallashuv jarayonlariga ta'siri masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. P. Neumann internet va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki mafkuraviy ta'sir mexanizmiga ham aylanganligini ta'kidlaydi <sup>[9]</sup>. Shu sababli media savodxonlik, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalari va raqamli madaniyatni rivojlantirish radikalizm profilaktikasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

T. Bjorgo radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda profilaktik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, muammoning oqibatlarini emas, balki uning sabablarini bartaraf etish samaraliroq ekanligini qayd etadi <sup>[1]</sup>.

A.P. Schmid esa zo'rvon ekstremizmning oldini olishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalliy hamjamiyatlar o'rtasidagi hamkorlik muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha, samarali profilaktika kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilgandagina ijobiy natija beradi <sup>[12]</sup>.

Ta'lim va tarbiya masalalari ham radikalizm profilaktikasida alohida o'rin tutadi. UNESCO ekspertlari ta'limni zo'rvon ekstremizmning oldini olishning eng samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etib, yoshlarda tanqidiy fikrlash, bag'rikenglik va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish radikal g'oyalarga moyillikni kamaytirishini ta'kidlaydilar. Sara Valdebenito va Manuel Eisner tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ta'lim, psixologik yordam, jamoatchilik bilan ishlash hamda ijtimoiy integratsiyaga asoslangan dasturlar profilaktikaning istiqbolli yo'nalishlari ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatda radikalizmga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishda ijtimoiy institutlarning o'rni ham muhimdir. Talcott Parsons oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy instituti sifatida baholab, insonning qadriyatlarini va xulq-atvor me'yorlari avvalo oilada shakllanishini ta'kidlaydi <sup>[11]</sup>.

Emile Durkheim esa ta'lim tizimini jamiyatning ma'naviy birligini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qilib, umumiy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar avloddan avlodga aynan ta'lim orqali uzatilishini qayd etadi <sup>[4]</sup>.

So'nggi yillarda radikalizm profilaktikasida ijtimoiy va ruhiy barqarorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Barbara Gruber insonlarda ruhiy chidamlilik, hissiy barqarorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish radikal g'oyalarga qarshi immunitetni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Jordan McSwiney va hamkorlari esa demokratik barqarorlik konsepsiyasini ilgari surib, fuqarolarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki, ochiq muloqot muhiti va o'zaro ishonch ekstremistik tahdidlarga qarshi muhim himoya omili ekanligini asoslaydilar.

Sharq mutafakkirlari merosida ham radikalizmga qarshi ma'rifiy yondashuvning nazariy asoslarini ko'rish mumkin. Abu Nasr Forobiy ilm va fazilat inson kamolotining asosi ekanligini ta'kidlab, ma'rifatli jamiyatda jaholat va mutaassiblikning ildiz otishi qiyinligini qayd etadi. Abu Rayhon Beruniy ilm-fan va tafakkurni insonni turli xurofot va asossiz qarashlardan himoya qiluvchi omil sifatida baholaydi. Abu Ali ibn Sino esa shaxsning ma'naviy va aqliy kamolotini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti deb hisoblab, bilimli va tarbiyali inson zararli g'oyalarga kamroq berilishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston olimlarining ilmiy qarashlarida ham mafkuraviy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlik masalalari muhim o'rin egallaydi. N. Jo'rayev globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning kuchayib borayotganini qayd etib, milliy qadriyatlar va tarixiy-ma'naviy merosni asrash radikal g'oyalarga qarshi samarali vosita ekanligini ta'kidlaydi <sup>[6]</sup>.

S. Otamurodov ma'naviyatni jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida baholab, ma'naviy bo'shliq mavjud bo'lgan muhitda turli buzg'unchi g'oyalar tezroq tarqalishini qayd etadi <sup>[10]</sup>.

J. Tulenov va Z. G'ofurovlar esa falsafiy tafakkur insonning voqelikni tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirishini, bu esa yoshlarning radikal va ekstremistik qarashlarga nisbatan barqarorligini oshirishini asoslaydilar <sup>[14]</sup>.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini shakllantirish masalasi ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida radikalizm va radikalashuv muammolariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, ijtimoiy-falsafiy tahlil hamda umumlashtirish metodlari tashkil etdi. Tizimli yondashuv orqali radikalizm profilaktikasining oila, ta'lim muassasalari, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va axborot makoni kabi tarkibiy bo'g'inlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida radikalashuv omillari hamda unga qarshi profilaktik mexanizmlar bo'yicha xorijiy va milliy tajribalar solishtirildi.

Kontent tahlil usuli asosida radikalizm, ekstremizm, deradikalizatsiya, mafkuraviy immunitet va ijtimoiy barqarorlik masalalariga oid ilmiy manbalar mazmunan o'rganildi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil orqali radikalizmning ijtimoiy, ma'naviy, psixologik va mafkuraviy omillari hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri baholandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida radikalizmning oldini olish va diniy-ma'rifiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning profilaktik faoliyatdagi o'rni aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida jamiyatda radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimining asosiy yo'nalishlari, mexanizmlari va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekiston davrida muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan keng ko'lami islohotlar, ayniqsa, diniy-ma'rifiy yo'nalishda tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, Prezidentning 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni <sup>[1-1]</sup> hamda 2019-yil 4-sentyabrdagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori <sup>[1-2]</sup> vijdon erkinligini ta'minlash, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini kafolatlash, diniy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda muhim rol o'ynadi.

Biroq adashgan oqimlar ham o'z faoliyatini to'xtatmagan. Ular zamon ruhiga moslashib, turli shakllarda fitna va fasodlarni tarqatishga intilgan. Ayniqsa, yosh avlod - mamlakat kelajagi sifatida qaraladigan qatlam - bunday oqimlarning ta'siriga ko'proq berilmoqda. Bu holat millat va Vatan uchun eng katta fojea sifatida baholanishi mumkin. Chunki yoshlar ilm-ma'rifat yo'lidan chetlashsa, jamiyatning intellektual va ma'naviy taraqqiyoti izdan chiqadi.

Shu sababli Respublikamizda maxsus qaytaruv guruhlarini tashkil etilgan. Ularning asosiy vazifasi - bilib-bilmay adashish yo'lga kirib qolayotgan shaxslarni to'g'ri yo'lga qaytarishdir. Guruhlar yakka tartibda suhbatlar olib borib, yot g'oyalardan ta'sirlanganlarni ajratib oladi va ularga to'g'ri maslakni ko'rsatadi. Bu jarayon yoshlarning ilm va ma'rifat yo'lida sobitqadam bo'lishlari uchun muhim tayanch vazifasini bajaradi.

Mazkur guruhlar faoliyati natijasida ko'plab adashgan firqa va toifalarga mansub shaxslarning da'volari asossiz ekani ochib berilmoqda. Ularning g'oyalari xomxayol ekani ilmiy dalillar bilan isbotlanmoqda. Bu esa jamiyatda sog'lom diniy-ma'rifiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tafakkur va ma'rifiy ong jamiyatni turli xil yot g'oyalardan himoya qiladi. Shu bois diniy-ma'rifiy targ'ibot nafaqat diniy sohada, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Ilmiy asoslangan diniy-ma'rifiy ishlar orqali yoshlar ongida mustahkam e'tiqod, sog'lom dunyoqarash va milliy qadriyatlar sodiqlik shakllanadi. Bu esa ularni turli xil fitna va fasodlardan himoya qiladi, jamiyatda birlik va totuvlikni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda ham mutaxassislar tomonidan yot g'oyalarga berilganlarga qarshi ilmiy asoslangan suhbatlar, mantiqiy dalillar va diniy-ma'rifiy targ'ibotlar o'tkazilmoqda. Bu suhbatlar natijasida ko'plab insonlar adashish yo'lidan saqlanib qolmoqda, noto'g'ri qarashlardan voz kechib, sog'lom e'tiqodga qaytmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda tazyiq va zo'ravonlikning oldi olinib, to'g'ri ong va to'g'ri tushuncha asosida e'tiqod qilish metodlari keng yoyilmoqda.

Oila - profilaktika tizimining birlamchi bo'g'inidir. Oila har bir inson hayotida muhim o'rin tutadigan ijtimoiy institut bo'lib, ayniqsa, shaxs kamoloti va farzand tarbiyasi jarayonida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi globalashuv va jadal o'zgarishlar davrida oila bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oilaviy munosabatlarni har tomonlama o'rganish ijtimoiy taraqqiyotda yuzaga kelayotgan ko'plab muammolarning mohiyatini anglash va ularga yechim topish uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi <sup>[1-3]</sup>.

Sotsiologik nazariyalarda ijtimoiy institutlar ularning jamiyatda bajaradigan vazifalariga ko'ra turlicha tasniflanadi. Bunday institutlar ichida oila alohida o'rin egallaydi. Zero, u kishilik jamiyati tarixida eng qadimiy va barqaror ijtimoiy tuzilmalardan biri sifatida shakllangan. Tadqiqotchilarning fikricha, oila inson hayotining

biologik va ijtimoiy davomiyligini ta'minlaydigan asosiy muhit hisoblanadi. Unda avlodlar almashinuvi, farzandlarning ijtimoiylashuvi, ma'naviy qadriyatlarining meros sifatida uzatilishi hamda insonning turli ehtiyojlari qondirilishi jarayonlari amalga oshadi.

Belarussiyalik sotsiolog S. Burova oila va nikohni insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridan shakllangan ijtimoiy birlik sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, oila davlat, millat va boshqa ijtimoiy tuzilmalar paydo bo'lishidan ancha oldin vujudga kelgan bo'lib, inson naslining davom etishi va yangi avlodni hayotga tayyorlash vazifasini bajarib kelmoqda <sup>[2]</sup>.

G'arb sotsiologiyasida ham oila tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Xususan, amerikalik sotsiolog Nil Smelzer tomonidan berilgan ta'rif keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra, oila qon-qarindoshlik, nikoh yoki farzand tarbiyasi bilan bog'langan shaxslar birlashmasidir <sup>[13]</sup>. Bunday birlashma a'zolari o'zaro mas'uliyat, umumiy turmush tarzi va farzandlar kamoloti uchun javobgarlik asosida birlashadilar hamda ko'pincha bir xonadon doirasida yashaydilar.

Ta'lim tizimi radikalizmning oldini olishda eng samarali vositalardan biridir. Ta'lim nafaqat bilim beradi, balki insonning mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Mustaqil fikrlash esa turli manipulyativ g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantiradi.

Maktab, kollej, litsey va oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy tafakkur, bag'rikenglik, inson huquqlari va fuqarolik mas'uliyati bilan bog'liq bilimlarni keng targ'ib etish zarur. Ayniqsa, yoshlarni axborotni tahlil qilishga, yolg'on va haqqoniy ma'lumotlarni farqlashga o'rgatish bugungi davrning muhim talablaridan biridir.

Ta'lim muassasalarida falsafa, ma'naviyat, madaniyatshunoslik va dinshunoslik fanlarining imkoniyatlari-dan samarali foydalanish radikallashuvning oldini olishda muhim natijalar beradi.

Mahalla jamiyatning eng quyi, ammo eng ta'sirchan ijtimoiy institutlaridan biridir. Mahalla fuqarolarning kundalik hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli radikallashuv xavfini erta aniqlash imkoniyatiga ega.

Mahalla faollari, nuroniylar, xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchilari tomonidan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari ham profilaktika tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar uyushmalari va ilmiy markazlar tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar radikal g'oyalarning tarqalishiga qarshi samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar davrida radikalizmning tarqalishida internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ortib bormoqda. Shu sababli profilaktika tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda media madaniyatni shakllantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ishonchli axborot manbalaridan foydalanish odatini qaror toptirish zarur. Axborot makonida sog'lom g'oyalar va milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi kontentlarni ko'paytirish ham muhim vazifalardan biridir.

G'oyaviy immunitet insonning zararli mafkuraviy ta'sirlarga qarshi mustahkam ichki himoya mexanizmi hisoblanadi. U bilim, tafakkur, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi.

Falsafa fanida insonning erkin fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va haqiqatni izlashga intilishi muhim qadriyat sifatida qaraladi. Aynan shu sifatlar radikal g'oyalarning asossizligini anglashga yordam beradi.

G'oyaviy immunitetni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Vatanparvarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik va qonunlarga hurmat kabi qadriyatlar radikallashuvning oldini olishda mustahkam ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Radikalizmning oldini olish va unga qarshi samarali profilaktika tizimini shakllantirish uchun "erta ogohlantirish – erta ta'sir" tamoyiliga asoslangan yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda radikallashuvning dastlabki belgilarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida mahalla, oila, ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik institutlari o'rtasida uzviy hamkorlik mexanizmini shakllantirish zarur. Shu bilan birga, radikalizmga qarshi g'oyaviy immunitetni rivojlantirishning uzluksiz modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu model maktabgacha ta'limdan boshlab umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlari hamda mehnat jamoalarigacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab olishi lozim. Mahallalarda profilaktik monitoring tizimini takomillashtirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda fuqarolarning ijtimoiy-psixologik holati, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish darajasi va internetdagi faolligini tahlil qilish orqali xavf guruhlarini aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir.

Zamonaviy axborot makonida radikal g'oyalar asosan raqamli platformalar orqali tarqalayotganligi sababli profilaktik faoliyatning raqamli yo'nalishini kuchaytirish talab etiladi. Shu maqsadda ijtimoiy tarmoqlarda radikal qarashlarga qarshi ilmiy asoslangan, sodda va tushunarli ma'rifiy kontentlarni muntazam joylashtirish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, deradikalizatsiya va reabilitatsiya markazlari faoliyatini umumiy profilaktika tizimi bilan integratsiyalash, ularning amaliy tajribasi asosida xavf guruhidagi fuqarolar bilan individual ishlash mexanizmlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Radikalizmga qarshi profilaktika ishlarini faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklab qo'ymasdan, ta'lim, madaniyat, din, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokidagi kompleks tizim sifatida tashkil etish zarur. Ayniqsa, yoshlar orasida media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligi ko'nikma-



larini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish, ota-onalar uchun radikalashuvning belgilari va uning oldini olish usullariga bag'ishlangan muntazam o'quv-seminarlar tashkil etish profilaktika samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mahallalarda "ma'rifiy profilaktika" modelini keng joriy etish, diniy-ma'rifiy va milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi tadbirlar ko'lamini kengaytirish orqali fuqarolarda sog'lom dunyoqarash va mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Bundan tashqari, radikalizmga qarshi profilaktika samaradorligini baholash uchun maxsus indikatorlar tizimini ishlab chiqish va muntazam monitoring olib borish zarur. Ushbu jarayon amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini aniqlash hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida bartaraf etishga imkon yaratadi. Umuman olganda, "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida aholining barcha qatlamlarini qamrab oladigan uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy ishlar konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish radikalizmning oldini olish, jamiyatda g'oyaviy immunitetni mustahkamlash hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir. Mazkur tizim oila, ta'lim, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va axborot makonining o'zaro hamkorligiga asoslanishi lozim. Profilaktik faoliyatning markazida inson, uning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy mas'uliyati turishi zarur.

Falsafiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, radikalizmga qarshi kurashning eng samarali yo'li inson ongida sog'lom dunyoqarash, tanqidiy tafakkur va g'oyaviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir. Shundagina jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy hamjihatlik va taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy dunyoda radikalizm va ekstremizmning oldini olish faqat jazolash choralariga emas, balki uzluksiz va kompleks profilaktika tizimiga tayanishi zarur. Bu tizim oila, ta'lim, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va axborot makonining uzviy hamkorligiga asoslanib, yoshlar ongida tanqidiy tafakkur, sog'lom dunyoqarash va g'oyaviy immunitetni shakllantirishni ko'zda tutadi. Radikalizmning ildizlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillar bilan bog'liq bo'lgani uchun uni bartaraf etishda ta'lim, ma'rifat, media savodxonlik, ijtimoiy integratsiya va milliy qadriyatlarga sodiqlik muhim ahamiyat kasb etadi. "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida olib boriladigan uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy ishlar jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish va taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi. Shu bois radikalizmga qarshi kurashning eng samarali yo'li inson ongida sog'lom e'tiqod va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu jamiyatning xavfsizligi va taraqqiyotini kafolatlaydi.

1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-3686277>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-4500897?ONDATE=24.05.2023%2000>
4. Мирзиёев Ш.М. Оила ва жамият устуни, ҳаётимизнинг файзи ва кўрки. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2018. - Б.464.
5. Bjørge T. Strategies for Preventing Terrorism. - New York: Palgrave Macmillan, 2013. - 320 p.
6. Burova S.N. Социология брака и семьи: история, теоретические основы, персоналии. - Минск: "Право и экономика", 2010. - С.25.
7. Crenshaw M. Explaining Terrorism: Causes, Processes and Consequences. - London: Routledge, 2011. - 296 p.
8. Durkheim E. Education and Sociology. - New York: Free Press, 1956. - 146 p.
9. Horgan J. The Psychology of Terrorism. - London: Routledge, 2014. - 218 p.
10. Jo'rayev N. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2018. - 256 b.
11. McCauley C., Moskalken S. Friction: How Radicalization Happens to Them and Us. - New York: Oxford University Press, 2011. - 304 p.
12. Moghaddam F.M. The Staircase to Terrorism: A Psychological Exploration. - Washington DC: American Psychological Association, 2005. - 161 p.
13. Neumann P.R. Radicalized: New Jihadists and the Threat to the West. - London: I.B. Tauris, 2016. - 256 p.
14. Otamurodov S. Ma'naviyat asoslari va jamiyat taraqqiyoti. - Toshkent: Tafakkur, 2019. - 288 b.
15. Parsons T. The Social System. - New York: Free Press, 1951. - 575 p.
16. Schmid A.P. The Routledge Handbook of Terrorism Research. - London: Routledge, 2011. - 718 p.
17. Smelzer N. Социология. Перевод с англ. - Москва: "Феникс", 1994. - С.424.
18. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. - Toshkent: O'zbekiston, 2020. - 496 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.